SUNNAT SHEROV

YAPON TILII

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

SUNNAT SHEROV

YAPON TILI

O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent 2007

BBK 81.2 yapon 923
SH-47

UDK 809.56
SH-47

SUNNAT SHEROV. YAPON TILI: O'quv-uslubiy qo'llanma. T., "Fan va texnologiya", 2007 yil, 208 bet.

Qo'llanmadan oliy o'quv yurtlarida yapon tilidan ta'lim olayotgan talabalar bilan bir qatorda, yapon tilini o'rganishni endi boshlayotganlar ham foydalanishi mumkin.

Qo'llanmada zamonaviy yapon tilining grammatikasi bo'yicha qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Mazkur qo'llanma Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti o'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2007 yil 16 aprel kunidagi 4-sonli bayonnoma).

Mas'ul muharrirlar: **Sugano Reiko**
Ergash Umarov - filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar: **Akramjon Karimov** - filologiya fanlari nomzodi
Dilfuza Abduraximova - pedogogika fanlari nomzodi
Qumri Karimova - filologiya fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-10-068-8

© Sunnat Xoldarovich Sherov, 2007
© "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2007

Muallifdan

Mamlakatimiz mustaqilikka erishgach, uning sharq mamlakatlari bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalari rivojlana boshladi. Qolaversa, Respublikamizning mustaqillikka erishishi fanning ayrim sohalari oldiga qo'yilgan ma'siy to'siqlarni olib tashladi. Sharq tillarini, xususan yapon tilini o'rganish sohasidagi cheklashlarga barham berildi. Bularning hammasi yapon tilini o'rganuvchilar uchun o'zbek tilida bitilgan har hil o'quv qo'llanma va darsliklarga ehtiyoj yuzaga kelganligini ko'rsatib turibdi. Shuning uchun ushbu qo'llanma ham mustaqillik sharofati tufayli ruyobga chiqdi, deb dadil aytish mumkin.

Qo'lingizdagi qo'llanma yapon tili grammatikasining nazariy masalalariga bag'ishlangan. U fonetika bilan boshlanib, morfologiya va qisman sistaksisni o'z ichiga oladi.

Har bir tilning grammatikasi murakkab sistemaga ega bo'lganligi uchun uni o'zlashtirish o'quvchidan ko'p vaqt va bilimni talab qiladi. Shu sababli olimlar grammatikani o'rganishda turli xil usullardan foydalanadilar. Ulardan biri murakkab grammatik qoidalarni ommabop qilib tushuntirish yo'lini o'z ichiga olgan turli xil uslubiy qo'llanmalar tuzishdan iborat. Ushbu qo'llanmada ham murakkab grammatik ma'lumotlar sodda tushuntirilgan. Kitobni tuzishda "soddadan-murakkabga" usuliga asoslanildi va unda turli davrlarda yapon, ingliz va rus tillarida chop etilgan darslik va qo'llanmalardan foydalanildi. Jumladan, mazkur qo'llanmani tayyorlashda muallif asosan I.V.Golovninning 1971-73 yillarda Moskvada «Высшая школа» nashriyotida chop etilgan "Учебник японского языка 1-3" va 1986 yilda bosilgan «Грамматика современного японского языка» kitoblaridan foydalandi.

Qo'llanmani tayyorlashda asosiy muammolardan biri lingvistik terminlar masalasi bo'ldi. Hozirgacha o'zbek tilida yapon tili bo'yicha qo'llanmaning yo'qligi, bu masalani alohida o'rganishni talab etadi. Qo'llanmada ham yapon, ham o'zbek tillarida mavjud bo'lgan lingvistik hodisalarni izohlashda hozirgi o'zbek tilidagi terminlar ishlatildi (masalan, ot kesimli gap, hol, to'ldiruvchi va h.k.).

O'zbek tili grammatikasida ishlatilmaydigan ayrim terminlar uchun yapon *tilidan olindi. Ayrim tushunilishi qiyin, o'zbek kitobxoni uchun terminlar esa o'zbek* tiliga tarjima qilindi. Shuning uchun ham qo'llanmadagi terminlarning ayrimlari shartli deb qaralishi lozim. Ilovada keltirilgan o'zbekcha-yaponcha va yaponcha-o'zbekcha tilshunoslik atamalari lug'atlari o'quvchilarga ushbu qo'llanmadagi ma'lumotlarni o'zlashtirishda katta yordam beradi.

Qo'llanmada fonetika va yapon yozuvidan so'ng "So'z yasash" bo'limi bilan davom ettirildi. Buning boisi shundaki, o'quvchi yapon tili morfologiyasini o'rganishda uning leksikasidagi yasama so'zlar haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim. So'z yasalishi bo'yicha berilgan ma'lumotlarda qo'shma so'zlarning tarkibiy qismlari alohida-alohida ko'rsatildi.

Qo'llanmada «So'z yasalishi», «So'z turkumlari» (ot, sifat, olmosh, fe'l, ravish, yuklama, bog'lovchi modal suz, taqlid, undov so'z)ga katta e'tibor berildi. «Sintaksis» (gap bo'laklari hamda gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari) va «Uslubiyat» bo'limida yapon tilining o'ziga xos tomonlari ochib berildi.

Qo'llanmadagi ism va familiyalar, geografik joy nomlariga doir izohlar, otlarning kelishik shakllari, sonlar, kishilik, ko'rsatish, so'roq, gumon, belgilash

SamDCHTI ARM

olmoshlarining qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlar tilni amaliy jihatdan o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Shuningdek qo'llanmada predikativ va yarim predikativ sifatlar va ularning besh asosi, sifatlarning yakka qo'llanishi, ot va fe'l oldida, qo'shma gaplar orasida kelganda bajaradigan vazifalari imkon boricha to'liq izohlandi. Fe'lning tuslanishi, so'zlarning zamon ifodalashi, fe'llarning bo'lishsiz va noaniq shakllari; so'zlarning tuslanishi, uning besh turi; fe'l mayllari, ularning turlari (buyruq, shart, istak, ijro), fe'l zamonlari, turlari, va vazifalari haqida imkon qadar to'liq ma'lumotlar berildi.

Muallif qo'llanmada ixtisos bo'yicha o'quv rejasida ko'zda tutilgan soat miqdorini emas, yoritilishi kerak bo'lgan nazariy materiallar hajmini e'tiborga olib yondoshgan. Shu jihatdan u amaldagi o'quv rejalari soatlariga mos kelmasligi mumkin.

Mazkur risola o'zbek yaponshunosligida yapon tili grammatikasini yaratishdagi ilk qadamlardindir. Binobarin, bunda ayrim nuqson va kamchiliklarning bo'lishi tabiiy. Bu kamchiliklarga muallifning diqqatini tortganlarga oldindan o'z minnatdorchiligimizni izhor etamiz.

Mazkur qo'llanma yapon va o'zbek xalqini bir-biriga yaqinlashtirishga yordam beradi, deb umid qilamiz.

1. YAPON TILI FONETIKASI

Yapon tili uzoq vaqt mobaynida tillarning nasabshunoslik tasnifida alohida mavqeni egallagan holda, til oilalaridan birontasiga ham kirmaydi deb hisoblanib kelinar edi. Biroq so'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar asosli ravishda yapon tili koreys tili bilan qardosh til ekanligini, va ushbu har ikkala tilning ham turkiy, mo'g'ul va tungus-manchjur tillari mansub bo'lgan oltoy tillar oilasiga mansubligini tasdiqlash mumkin. Shunday qilib, aslini olganda yapon tili - bu eramiz boshlanmasdan avval Osiyo qit'asidan kelib Yapon orollariga joylashib qolgan musofirlar nutqi. Darvoqe, yapon tili o'zining ayrim xususiyatlari bilan Yaponiyaning avstraneziya (boshqacha qilib aytganda Malay-polineziya) tillaridan birida gaplashgan yanada qadimiy aholisining tiliga o'xshab ketadi.

Ko'p yillar mobaynida yapon tili xitoy tilining kuchli ta'siri ostida rivojlanib keldi. Biroq, yapon tilidagi kelib chiqishi xitoy tili bilan bog'liq bo'lgan barcha unsurlar o'zlashtirilgandir, tillarning qardoshligi esa asosiy unsurlarning kelib chiqishi umumiy bo'lishini nazarda tutadi. Shu ma'noda yapon va xitoy tillari qardosh tillar emas.

Yapon tilining fonetik manbalari nisbatan kamdir: fonemalar soni ko'p emas, ularning uyg'unligi juda cheklangan.

Yapon tilida beshta unli fonema - **A (a), I (i), U (u), E (e), O (o)** bor. Yapon tilidagi **a, i, e, o** ohangi bo'yicha o'zbek tilidagi tegishli tovushlarga anchagina o'xshab ketadi; yapon tilidagi **u** o'zbek tilidagi **u** tovushidan birmuncha farq qiladi, lablarni chuchaytirmasdan talaffuz qilinadi va o'zbek tilidagi **u** va **i** tovushlari o'rtasidagi tovushni eslatadi.

Yapon tilining unlilari cho'ziq va qisqa bo'lishi mumkin, masalan 蚊 **ka** '***chivin***' ma'nosini bildiradi, カ — **ka:** (boshqachasiga **kaa** deb transkripsiya qilinadi) - '***avtomashina***' (ingliz tilidagi **car**dan) ma'nosini bildiradi; 木 **ki** '***daraxt***' ma'nosini bildiradi, キ — **ki:** (yoki **kii**) '***kalit***' (ingliz tilidagi **key**dan) ma'nosini bildiradi. Yapon tilidagi so'zlarning lotincha transkripsiyasida unlilarning cho'ziqligi harf ustiga qo'yiladigan chiziqcha bilan, gohida – harfdan keyin qo'yiladigan ikki nuqta bilan, ba'zan esa harfni ikki marta yozgan holda belgilanadi. Ko'pincha cho'ziqlik transkripsiyada umuman belgilanmaydi. Odatda bu jiddiy noqulayliklar yaratmaydi, biroq ayrim hollarda transkripsiyada qisqa va cho'ziq unlilarning farqlanmasligi chalkashlikka olib kelishi mumkin.

Yapon tilidagi unlilar hech qachon o'z tembrini yo'qotmaydi, ya'ni bosbqacha yoki noaniq tovushlarga aylanmaydi. Deyarli hamma o'rinlarda ular juda aniq talaffuz etiladi. Darvoqe, **i** va **u** unlilari so'z oxirida jarangsiz undoshlar orasida yoki jarangsiz undoshdan keyin kelganda ko'pincha unsiz talaffuz etiladi: しました **simasita** '***qildi***' deyarli **simasta** deb, します **simasu** 'qilyapman' esa **simas** deb yangraydi. Biroq bo'g'inlarni (masalan she'rlarda) talaffuz qilganda mana shunday unsizlashuvchi unlisi bor bo'g'inlar til vakillari tomonidan baribir to'liq bo'g'inlar sifatida qabul qilinadi: **sita** (**s'ta** deb taalffuz qilinadi) so'zida yapon bitta bo'g'in emas, aniq ikkita bo'g'inni eshitadi.

Undoshlarga kelsak, yapon tilidagi **k, g, t, d, p, b, s, m, n** qattiq undoshlari o'zbek tilidagi tegishli tovushlardan deyarli farq qilmaydi. Faqat **tsu** bo'g'inida uchraydigan **ts** tovushi va unga mos jarangli **z** (**dz**, ikkita emas bitta tovush sifatida talaffuz etiladi) mavjud. **H** tovushi inglizcha inglizcha "***hall***" so'zidagi "**h**" tovushidan farq qilgani kabi, o'zbekcha "***xabar***" so'zidagi "**x**" tovushidan ham farq qiladi, lekin baribir keyingisiga yaqinroq. Faqat **fu** bo'g'inida uchraydigan **f** tovushi, o'zbek tilidagi "**f**" tovushidan keskin farq qiladi va ko'proq ingliz yoki nemis tilidagi lablarni chambarak qilib talaffuz etiladigan "**h**" tovushini eslatadi. **R** tovushi anchagina o'ziga xos bo'lib o'zbek tilidagi "**r**" tovushiga qanchalik o'xshasa (aniqrog'i qanchalik o'xshmasa), o'zbek tilidagi "**l**" tovushiga ham o'xshaydi. **Y**

tovushi (faqat **ya, yu, yo** bo'g'inlarida uchraydi) o'zbek tilidagi **y** tovushidan deyarli farq qilmaydi, **w** tovushi esa (faqat **wa** bo'g'inida uchraydi), garchi o'zbek tilidagi transkripsiyada **v** harfi bilan ko'rsatilsa-da, o'zbek tilidagi "v" tovushiga umuman o'xshamaydi va ozgina ingliz tilidagi "w" (zinhor "v" emas) tovushini eslatadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, **g** va **z** fonemalari so'zdagi o'rniga qarab har xil tovushlar bilan talaffuz etiladi. So'zning boshida **g** odatdagi ruscha [g] singari talaffuz etiladi, so'zning o'rtasida esa, ba'zi istisnolar bilan [ɦ] (o'zbek tilidagi dimog' bilan talaffuz etiladigan "**ng**") singari talaffuz etiladi. Shuning uchun ham ***Nagasaki*** kabi so'z, haqiqiy yapon talaffuzida ***Nangasaki*** yoki hatto ***Nanasaki*** bo'lib eshitiladi. Lotincha va kirilcha transkripsiyalarda **g** fonemasining mana shu variantlari orasidagi farq deyarli qayd qilinmaydi. **Z** so'z boshida va **n** dan keyin [dz] deb ifoda qilinadi, so'z o'rtasida esa odatda [z] (o'zbekcha "z") deb talaffuz etiladi. Transkripsiyalarda bu farqlar ham qayd etilmaydi; bunda lotincha transkripsiya bu fonemani barcha o'rinlarda **z** (**dz** emas) sifatida, o'zbekcha transkripsiya esa **dz** (z emas) sifatida ko'rsatadi. Mana shuning uchun ham buddizm yo'nalishlaridan biri lotin alifbosidagi tillarda Zen shaklida (garchi aslida aniq talaffuzi "***dzen***" kabi bo'lsa ham) o'rin olgan, ***kamikaze*** so'zi esa o'zbekchada "***kamikadze***" deb yoziladi.

Yapon tilidagi qattiq undoshlarning hammasiga mos yumshoq (yumshoqlashgan) undoshlar mavjud ("qattiq-yumshoq" juftiga faqat **y** va **w** kirmaydi). **Ye (e)** unlisidan oldin faqat qattiq undoshlar, **i** unlisidan oldin faqat yumshoq undoshlar uchraydi. Boshqa uchta unli tovushlardan oldin esa ham qattiq, ham yumshoq undoshlar uchraydi. **ki, gi, pi, bi, mi, ni**, bo'g'inlari shuningdek **ri** bo'g'ini (yapon tilidagi **r**ning o'ziga xosligini inobatga olmaganda) akustik taasuroti jihatidan o'zbek tilidagi tegishli bo'g'inlardan kam farq qiladi; **kya, kyu, kyo, pya, bya** kabi bo'g'inlar va **k, g, p, b, m, n, r** yumshoq undoshlari **a, u, o** bilan birga keladigan boshqa bo'g'inlar haqida ham xuddi shunday deyish mumkin. **Hi, hya, hyu, hyo** bo'g'inlaridagi undosh "ximiya" so'zidagi yumshoq "x" tovushiga nisbatan sershovqin va ko'pgina yaponlar talaffuzida **sh** dan farq qilish juda qiyin.

S, z, t, d tovushlariga mos yumshoq tovushlar juda ham o'ziga xosdir: ular sezilarli darajada shipillovchi o'zgalikka ega. Shuning uchun ham lotin amaliy transkripsiyasining eng ko'p ishlatiladigan tizimida bu fonemalarning ingliz tilidagi tovush ma'nosidan (**"sh", "ch", "dj"**) kelib chiqib **sh, ch, j** (oxirgi fonema ayni paytda ham **z**, ham **dg**a mos yumshoq undosh bo'lib xizmat qiladi) sifatida belgilanishi ajablanarli emas. Ruscha transkripsiyada esa **shi, chi, ji** bo'g'inlarini **si, ti, dzi** sifatida, bu undoshlarning boshqa unlilar bilan birikmalarini esa **sya, syu, syo, tya, tyu, tyo, dzya, dzyu, dzyo** sifatida yozish qabul qilingan. "Toshiba" va "Hitachi" kabi firma nomlari bo'lgan yaopncha so'zlar, bizga ingliz tili (Toshiba, Hitachi) orqali kirib kelgan, shuning uchun ham ular **"sh"** va **"ch"** harflari bilan yoziladi. Sobiq Sovet, Rossiyalik va O'zbek yaponshunoslar davrasida qabul qilingan umumiy qoidalarga muvofiq Toshiba, Xitachi deb yozilishi kerak bo'lar edi. Agar biron-bir kimsa, bunday yaponcha so'zda, masalan 寿司 **sushi** kabi taom nomida aslida qanaqa tovush - **"sh"** mi yoki **"s"** talaffuz qilinishini so'rasa, to'g'ri javob quyidagicha bo'ladi: ikkalasi ham emas. Bu yerda talaffuz qilinadigan tovush o'zbekcha **"s"** bilan inglizcha **"sh"** (anchagina yumshoq) o'rtasidagi bir tovush bo'lib, o'zbek tilidagi qattiq **"sh"** tovushidan butunlay farq qiladi.

Yapon tilidagi ko'pchilik undoshlar nafaqat qisqa, balki cho'ziq bo'lishi ham mumkin: 武士 **busi** (***jangchi***") – 物資 **bussi** (***tovar***"), 音 **oto** (***tovush***") – 夫 **otto** (***er***"), 亜麻 **ama** (***zig'irpoya***") – 按摩 **amma (anma)** (***uqalash***" ma'nosini bildiradi).

XX asrning ikkinchi yarmida yapon tilida ko'plab Yevropadan kirib kelgan so'zlar paydo bo'ldi, bu esa yapon tilidagi fonemalar tizimining birmuncha o'zgarishiga, uning imkoniyatlari kengayishiga olib keldi. Masalan, o'zlashtirilgan hozirgi zamon so'zlarida **ts**

va **f** tovushlari faqat **u** dan oldin, **w** esa faqat **a** dan oldin emas, balki boshqa unlilardan oldin ham uchraydi (ファン **fan** ingliz tilidagi **fan** so'zidan, ウィスキー**wisuki: "whiskey"** so'zidan); avval mumkin bo'lmagan **ti** va **di** (**chi** va **ji** dan farq qiladigan), **tyu** (**chu** bilan mos kelmaydigan), **fyu** va h.k.z. bo'g'inlar paydo bo'ldi; avval mos tovushlari bo'lmagan tovushlarga, masalan jarangli undoshlarga mos cho'ziq tovushlar paydo bo'ldi: **bb, dd** va h.k.z. Shunday bo'lsa-da bugungi kunda ham Yevropa tillarida keng tarqalgan fonologik qarshisiga qo'yishlar yaponlar qulog'iga mutlaqo begona bo'lib eshitilganicha qolmoqda. Yaponlar yevropacha **"r"** va **"l"** (ローマ **Roma - Rim,** ロンドン **Rondon - London**), **"b"** va **"v"** (ボン **Bon - Bonn,** ベネチア **Benetia - Venetsiya**) tovushlarini o'zlarining tilidagi vositalar bilan bir xil tarzda talaffuz qiladilar, va chet tillarini o'rganayotganda bu tovushlarning orasidagi farq ular uchun juda katta qiyinchilik tug'diradi. Yapon talaffuz qiladigan **jina** so'zi xuddi **Zina** ismi kabi, **Dina** yoki **Djina** ismini ham ifoda qiladi.

Yapon tilidagi bo'g'in har doim ochiq bo'ladi, ya'ni undosh tovush bilan tugallanmaydi: **"tot"** va **"tok"** emas faqat **"to"** kabi bo'g'inlar mavjud. Bevosita har xil undoshlarning yonma-yon kelishiga yo'l qo'yilmaydi.

Darvoqe, hech bo'lmaganda yapon tilidagi geografik nomlar Nixon (ya'ni Yaponiya), Kanda yoki Namba kabilarda bitta undosh fonema baribir bo'g'inni tugatayotganday tuyuladi – bu burun sonanti bo'lib, o'zidan keyin qanday tovush kelishiga bog'liq ravishda gohida **[n]**, gohida **[m]**, gohida **[ŋ]** sifatida gohida esa avvalgi unlini cho'zib, burunlashtirib (yapon tilida ushbu har xil tovushlarni bitta tovushning variantlari deb hisoblash kerak bo'ladi; yozuvda ularning hammasi bitta belgi bilan aks ettiriladi) talaffuz qilinadi. Biroq, yapon til ongi bu fonemani yopiq bo'g'inning oxirgi unsuri deb emas, balki alohida bir bo'g'in deb qarashga moyil. Shunday qilib yapon 新幹線 **sinkansen** ("yangi magistral", tezyurar temir yo'llari tarmog'i) so'zida uchta bo'g'in bor deb emas, balki oltita bo'g'in: **si-n-ka-n-se-n** bor deb hisoblaydi. Bu hol ayniqsa ham she'rlarda va qo'shiq aytganda bo'g'inlarni hisoblashda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Yapon tiliga boshqa tillardan so'zlar o'zlashtirilganda, o'zidan keyin unli kelmaydigan har bir undosh tovushga **u** (yumshoq undoshlardan keyin ko'pincha **i, t** va **d** tovushlaridan keyin - **o**) tovushi qo'shiladi. Shunday qilib, **Toshkent** yaponcha **Toshikento**[1], **Samarqand** esa **Samarkando** deb ifoda qilinadi. Ba'zan shu tarzda moslashtirish natijasida so'z juda ham qiyin tushunadigan darajada o'zgarib ketadi: masalan, yaponcha **torio** so'zi, aslida umumiy yevropacha **"trio"** so'zi ekanligini darrov tushunish qiyin.

Yapon tilidagi urg'u o'zbek tilidagi kabi kuch urg'usi bo'lmaydi, balki tonik (musiqaviy) bo'ladi. Barcha bo'g'inlar deyarli bir xil kuch bilan talaffuz qilinadi; 着物 **kimono** so'zi **ki-mo-no** sifatida eshitiladi. Biroq ba'zi bo'g'inlar baland tonda, boshqalari esa pastroq tonda talaffuz qilinadi. Kimono so'zidagi birinchi bo'g'in past, ikkinchi va uchinchi bo'g'in esa baland. Ba'zi hollarda ton so'zni farqlashga imkon beradigan yagona belgi bo'ladi: 柿 **kaki "xurmo"** ma'nosini, 牡蠣 **kaki** – **"ustrisa"** (baland ton yarimqalin shrift bilan ajratilgan) ma'nosini bildiradi.

[1] Shu kunga qadar chop etilgan barcha turdagi nashrlarda Toshkent yapon tilida Toshikento, yani boshqa bir qator geografik atamalar kabi, Toshkentning rus tilidagi nomi (Ташкент)dan olingan bo'lib keltirgan.

2. YAPON YOZUVI

Yapon yozuv xitoy yozuvi asosida 1.200 yil muqaddam paydo bo'lgan. Yaponlarda xitoy madaniyati bilan tanishishdan oldin bir nechta azaliy yozuvlari bo'lganligi haqidagi turli xil nazariyalar mavjud. Ammo ular o'z isbotini topmagan. Zamonaviy yapon yozuvi tizimida asosan ikki xil belgilar qo'llaniladi: birinchisi so'zli, aniqrog'i, morfemali belgilar – ierogliflar, yaponchada 漢字 **kandzi** va bo'g'inli belgilar 仮名 **kana**. Bundan tashqari, xozirgi kunda bu tizimga fonemali belgilar – lotin alifbosi – ローマ字 **romadzi** ham kiradi.

Ierogliflar yaponlar tomonidan Xitoydan o'zlashtirilgan. Xitoyda eramizdan avval ikkinchi mingyillikda paydo bo'lgan va hozirgi holatiga yaqin ko'rinishni ikki ming yil avval Xan dinastiyasi davrida olgan. O'zga joyda paydo bo'lganligi ierogliflaming yaponcha atalishi aks etadi: **kandzi** – «xan belgilari», «xitoycha yozuvlar». Ierogliflar fonetik yozuv belgilaridan yozuvda tovush (fonema) yoki bo'g'in emas, balki so'zlar(yoki morfemalar), ya'ni tilning ma'noli birliklarini bildirishi bilan farq qiladi. Oxir-oqibat hozirgi ko'rinishida o'z tasvirini umuman yo'qotgan bo'lsa ham, ierogliflar rasmlarga tenglashtiriladi. Xitoy belgilari yordamida yaponcha yozishga ilk o'rinishlar eramizning VI-VII asrlariga tegishli, lekin ierogliflarda yozilgan, kam tarqalgan yapon matnlari VIII asrda paydo bo'lgan. Dastavval 古事記 «Kodziki» afsona va rivoyatlar to'plami (qisman xitoychada yozilgan) hamda she'riy antologiya 万葉集 «Man'yosyu» yozilgan. 国字 **kokudzi** «milliy belgilar» deb ataladigan ayrim qiyosiy kam sonli ierogliflar kelib chiqishi xitoycha bo'lgan elementlar va xitoycha tarkibiy modellar asosida Yaponiyada paydo bo'lgan.

Kana Yaponiyada paydo bo'lgan, lekin genetik jihatdan ierogliflarga tegishli. Kana – bu aynan o'sha ierogliflar, faqat o'zining asosiy vazifasi (morfemalarni berish)da qo'llanilmagan, balki ikkilamchi fonetik (bo'g'inlarni berish) vazifasida, ma'nosiga qaramay qo'llanilgan. Odatda «kana» so'zi bilan nafaqat fonetik qo'llanilgan, balki grafik jihatdan osonlashtirilgan belgilar ham ifodalanadi. Kana osonlashtirish usuli bilan ajratiladigan ikkita asosiy variantda mavjud bo'ladi: 片仮名 **katakana** – uncha katta bo'lmagan bo'laklar olingan, asosiy tuzilishda bo'lgan ierogliflar, 平仮名 **xiragana**– o'z-o'zidan asosiydan oson bo'lgan tez yoziladigan ierogliflar. Katakana bilan xiragana aynan bir bo'g'inli alifboning ko'rinishlari bo'lsa ham, bir xil tovush ma'nosini bildiruvchi ko'pchilik belgilari, turli xil ierogliflarga borib taqaladi va bir-biriga umuman o'xshamaydi. Kana asta-sekin shakllandi, lekin u X asrdan beri mavjudligini ta'kidlash mumkin.

Xiragana jadvali va uning xitoy ierogliflaridagi timsoli

あ	安	い	以	う	宇	え	衣	お	於
か	加	き	幾	く	久	け	計	こ	己
さ	左	し	之	す	寸	せ	世	そ	曽
た	太	ち	知	つ	川	て	天	と	止
な	奈	に	仁	ぬ	奴	ね	祢乃		
は	波	ひ	比	ふ	不	へ	部	ほ	保
ま	末	み	美	む	武	め	女	も	毛
や	也			ゆ	由			よ	与
ら	良	り	利	る	留	れ	礼	ろ	呂
わ	和							を	
ん									

Katakana jadvali va uning xitoy ierogliflaridagi timsoli

ア	阿	イ	伊	ウ	宇	エ	江	オ	於
カ	加	キ	幾	ク	久	ケ	介	コ	己
サ	散	シ	之	ス	須	セ	世	ソ	曽
タ	多	チ	千	ツ	川	テ	天	ト	止
ナ	奈	ニ	二	ヌ	奴	ネ	祢 乃		
ハ	八	ヒ	比	フ	不	ヘ	部	ホ	保
マ	末	ミ	三	ム	牟	メ	女	モ	毛
ヤ	也			ユ	由			ヨ	与
ラ	良	リ	利	ル	流	レ	礼	ロ	呂
ワ	和							ヲ	平

Kanada 48 ta asosiy belgi mavjud (yasamalarni hisoblamaganda); har bir belgi 2 xil variantga egaligi (katakana va xiragana) sababli, bu sonni ikkiga ko'paytirish kerak (96).

あ | ア	い | イ	う | ウ	え | エ	お | オ
A	I	U	E	O
か | カ	き | キ	く | ク	け | ケ	こ | コ
KA	KI	KU	KE	KO
が | ガ	ぎ | ギ	ぐ | グ	げ | ゲ	ご | ゴ
GA	GI	GU	GE	GO
さ | サ	し | シ	す | ス	せ | セ	そ | ソ
SA	SHI (SI)	SU	SE	SO
ざ | ザ	じ | ジ	ず | ズ	ぜ | ゼ	ぞ | ゾ
ZA	ZI	ZU	ZE	ZO
た | タ	ち | チ	つ | ツ	て | テ	と | ト
TA	TI(CHI)	TSU	TE	TO
だ | ダ			で | デ	ど | ド
DA			DE	DO
な | ナ	に | ニ	ぬ | ヌ	ね | ネ	の | ノ
NA	NI	NU	NE	NO
は | ハ	ひ | ヒ	ふ | フ	へ | ヘ	ほ | ホ
HA	HI	FU	HE	HO
ば | バ	び | ビ	ぶ | ブ	べ | ベ	ぼ | ボ
BA	BI	BU	BE	BO
ぱ | パ	ぴ | ピ	ぷ | プ	ぺ | ペ	ぽ | ポ
PA	PI	PU	PE	PO
ま | マ	み | ミ	む | ム	め | メ	も | モ
MA	MI	MU	ME	MO
や | ヤ		ゆ | ユ		よ | ヨ
YA		YU		YO
ら | ラ	り | リ	る | ル	れ | レ	ろ | ロ
RA	RI	RU	RE	RO
わ | ワ				を | ヲ
WA				WO
ん | ン				
N(M)				

Ieroglifika Yaponiyada har doim asosiy yozuv ko'rinishi hisoblangan, kana – ikkilamchi, yordamchi belgi. Bundan tashqari, kana o'zida jarangsiz va jarangli undoshli bo'g'inlarni, shuningdek, chet tillaridan o'zlashmalarda uchraydigan yapon tili uchun noodatiy bo'lgan undosh va unli tovushlar birikmalarini ifodalash uchun oddiy belgilardan dinkritik belgisi yoki kichraytirilgan o'lchami bilan farq qiladigan yasama belgilarni ham o'z ichiga oladi. Bunday hosila belgilar sonini absolyut aniqlik bilan belgilash qiyin, chunki ularning hammasi ham ommaviy qabul qilingan hisoblanmaydi, ayrimlari faqat maxsus ilmiy nashrlarda okkazional mualliflik orfografiyalarda va hokazo uchraydi. Shuningdek, unlilarning cho'ziqligini ifodalaydigan alohida belgi bor (uzun, cho'ziq). Bu hamma qo'shimchalarni hisobga olgan holda kanada 80 dan ortiq belgi mavjud va agar katakana bilan xiragana birlashsa, u xolda bu son 170 gacha etadi.

Zamonaviy yaponcha yozuv matnida ieroglif va kana almashib turiladi. Qoida tariqasida, matnning leksik qismi (o'zak, asos)ni yozish uchun ieroglif qo'llaniladi, grammatik qismi (affiks, yordamchi so'zlar)ni yozish uchun (ifodalash uchun) – xiragana ishlatiladi. Ayrim so'zlar, birinchi navbatda boshqa tillardan o'zlashmalar 外来語 **gayraygo**, odatda, ieroglifiar bilan yozilmaydi, ularni ifodalash uchun katakana ishlatiladi.

Umuman olganda, xiraganadan xuddi katakanadek butun matnni hamda so'zlar asosini yozishda foydalaniladi. Lekin bunday imloga faqatgina zaruratda, ya'ni biror sabab bilan ieroglifni qo'llab bo'lmasa yo'l qo'yiladi; shunday qilib, ieroglifika bilan tanish bo'lmagan kichkina bolalar uchun kitoblarda, odatda faqat xiragana qo'llaniladi, telegrammalarda – katakana. Norma bo'lib esa 漢字仮名混り文 **kandzi-kana-madziri-hun**, ya'ni «bo'g'inli belgilar qo'shilgan ieroglifli yozuv» hisoblanadi.

Lotin alifbosi, ローマ字 **romadzi**, ya'ni «rim belgilari» Yaponiyada XVI asr oxiridan ma'lum. Lekin faqatgina XX asrda, ayniqsa Ikkinchi Jahon urushidan keyin keng yoyilgan. Qoida tariqasida, lotin harflari yapon tilidagi matnlarda ko'pincha abbreviatura ko'rinishida uchraydi. Xitoydan kelgan an'anaviy yozuvning yo'nalishi vertikal: belgilar tepadan pastga, qatorlar esa o'ngdan chapga qarab qo'yilgan. Bunday yozuv bilan yozilgan kitoblar, yevropa usuliga qarama-qarshi ravishda varaqlanadi, muqovasi chapda emas, o'ng tomonda bo'ladi.

Lekin, XX asrda yapon tili ko'proq yozuvning yevropa – gorizontal yo'nalishidan foydalanadilar, bunday yozuv rasmiy hujjatlar uchun norma bo'lib qoldi.

Ieroglifiar fondi juda ko'p minglab belgilarni qamrab oladi. Uning hajmini aniq aytish mumkin emas, chunki u tilning leksik fondi singari ochiq hisoblanadi, ayrim ieroglifiar iste'moldan chiqib ketadi, elementar grafemalar oldin bo'lmagan yangi birikmalarga kirishishi sababli yangilari paydo bo'ladi (hozirgi kunda bu kam uchraydi).

Hozirgi vaqtda Yaponiyada zaruriy ieroglifik minimum sifatida 常用漢字表 «**Dzyo:yo:kandzixyo:**» («Kunlik iste'moldagi ieroglifiarning ro'yxati») ieroglifiarning ro'yxatiga 1945 belgi kiradi.

Yapon yozuvi tizimi deyarli har bir ieroglif bir emas, ikkita, ba'zan esa undan ko'p talaffuzga egaligi bilan qiyinlashadi. Xitoy ieroglifiarini qo'llaydigan boshqa tillarda – xitoy bilan koreys tillarda, bir nechta talaffuzli ieroglifiar uchrasa ham, qoidadan mustasno ravishda uchraydi. Odatda yapon tilida ieroglif ikki xil talaffuz etiladi: 音 **on** va 訓 **kun**. **On** atamasi (so'zma-so'z tarjimasi – «*tovush*») xitoy tilidan yapon tiliga kirib kelgan ieroglif bilan so'z (yoki morfema)ni anglatadi. **Kun** (so'zma-so'z tarjimasi – «*talqin*») – bu azaliy yaponcha so'z, qoida tariqasida, onning sinonimi bo'lib, uning ma'nosini anglatadi. Masalan: 山 «*tog'*» ieroglifining **on** o'qilishi サン **san** (zamonaviy xitoy tilida - **shan**) va **kun** o'qilishi やま **yama**. 水«*Suv*» ieroglifining **on** o'qilishi スイ **suy** (hozirgi xitoy tilida - **shuy**) va **kun** o'qilishi みず **midzu**. Dastavval, ieroglifika o'zlashtirilishi davrida, nafaqat

ierogliflarning o'zi, balki サン **san**, スイ **suy** so'zlari (morfemalari) ham yaponlar uchun o'zga til elementlari hisoblangan, ularning ma'nosi noma'lum bo'lgan hamda tushunarli, ona tilidagi so'zlar tushuntirishni talab qilgan: サン **san**– bu やま **yama**, ya'ni «*tog'*», スイ **suy** – bu みず **midzu**, ya'ni «*suv*». Vaqt o'tishi bilan サン **san**, スイ **suy** morfemalari yapon tiliga mustahkam o'rnashib va buning natijasida やま **yama**, みず **midzu** so'zlari ierogliflarning «talqini» vazifasini birmuncha yo'qotdilar. Lekin ierogliflar bilan aloqasini saqlab qolishdi, hamda sekin – asta «*tog'*», «*suv*» ierogliflari nafaqat サン **san**, スイ **suy** morfemalarining (boshida ular bilan bog'liq), balki やま **yama**, みず **midzu** so'zlarining (yapon zamirida ular bilan assotsiyalangan) ham yozilish usuli bo'lib ishlatiladigan bo'ldi.

Ieroglif o'qilishini u yoki bu aniq vaziyatda – **on** yoki **kun** bo'yicha, faqatgina kontekstdan aniqlash mumkin. Ayrim ierogliflarning bir emas, bir nechta **on** o'qilishi mavjud. Bu ayrim xitoy so'zlari yoki morfemalarini yapon tili bir necha marta – har xil davrlarda va xitoy tilining turli shevalaridan o'zlashtirilganligi bilan bog'liq. Boshqa tomondan, ko'pchilik ierogliflar odatda sinonimik yoki bir-biri bilan ma'no jihatdan bog'liq bo'lgan bir nechta **kun** ma'nolariga ega. Bundan tashqari, ayrim hollarda **kun** bir ieroglifga emas, balki bir butun ma'noni anglatuvchi 2 yoki 3 belgilar qatoriga yoziladi. Umuman olganda, yapon tili imlosi nodoimiylik bilan farq qiladi va aynan bir so'zga turli ko'rinishlarni yozishga bemalol yo'l qo'yadi.

Buning hammasi yapon yozuvi tizimini dunyoda eng qiyin qilishi, maktab ta'limida, bosmaxona ishlarida ko'p qiyinchiliklar yaratishi shubhasizdir. XIX asrning ikkinchi yarimi va XX asrning birinchi yarmida Yaponiyada ham, Xitoyda ham yozuvni osonlashtirishga jamoat harakati (tilni modernizatsiyalash uchun harakatning bir qismi sifatida) bo'lib o'tgani ajablanarli hol emas. Bu harakatning radikal namoyondalari ieroglifikadan butunlay voz kechishga da'vat etganlar; alternativ sifatida kana yoki lotin yozuvi ilgari surilgan. Lekin ularning rejalari amalga oshmadi. Ikkinchi Jahon urushidan so'ng demokratik yangilanish jarayonida Yaponiyada yozuv reformasi ham o'tkazilgan. Bu sohadagi asosiy yangiliklar 1946-1948 yillarga, xususan, nashriyotlarda yo'l ko'yiladigan ieroglifik belgilar tanlovini sezilarli darajada chegaralagan 当用漢字表«**To:yo kandzi xyo:**» ieroglifik limiti kiritilgan paytga to'g'ri keldi, hamda qiyin yoziladigan ko'pgina ierogliflar rasman ancha yengiliga almashtirildi. Radikal loyihalarga nisbatan bu o'zgarishlar ancha mo''tadil ko'rinadi. Yapon yozuvi tizimining asosiy tamoyillari o'z kuchini yo'qotmadi. Shunday bo'lsa-da tizim sezilarli o'zgarishga uchradi.

Ieroglifik yozuvning asosini oddiy tasviriy va ko'rsatkich belgilar tashkil etadi.

Birinchisi ko'rsatkich. Bunday belgilarga masalan, 上 va 下 kiradi, ularning ma'nosi «*yuqori*» va «*past*» ustida vertikal va tagida gorizontal chiziq bilan ifodalangan, bu esa qandaydir ma'noda ko'rsatkich imloni ko'rsatadi.

Ikkinchisi, tasviriy. Dastavval oddiy rasm ko'rinishida bo'lgan. Masalan, og'iz pastga qavariq, tepaga ko'ndalang chiziqli yarim shar shaklida tasvirlangan; shu tariqa 口 «*og'iz*» ieroglifi paydo bo'lgan. Qavariq yoyi tepaga va tagida nuqtalar osmon bilan tomchilarning ifodasi bo'lib xizmat qilgan; 雨 «*yomg'ir*» ieroglifining birinchi ko'rinishi shunday. Vaqt o'tishi bilan rasmlar sxemalashgan va nihoyat, ilk tasviridan asar ham qolmagan. Hozirgi ko'rinishga ega bo'lgan. Hech qaysi ieroglif bevosita tushunarli piktografik ma'nodorlikka ega bo'lgan shaklini saqlab qolmagan. Hamma rasmli belgilar ma'nosi, shuningdek, ieroglifikaning hamma oddiy leksik ma'noga ega elementlari hozirda butunlay shartlidir.

Xitoy yozuvida rasmli belgilar, piktogrammalar juda kam. Ideogrammalarning soni nisbatan ko'proq. Masalan, 犬 ieroglifining dastlabki shakli oyog'ini ochib turgan odamdir, bu tasvir tagiga gorizontal chiziq qo'shilgan; lekin bu rasm odamni emas, uning turishini

MUNDARIJA

Muallifdan		3
1.	**Yapon tili fonetikasi**	5
2.	**Yapon yozuvi**	8
3.	**So'z yasalishi**	24
3.1	**Yapon tili leksikasi vago**	24
3.1.1	Sodda va yasama vago	24
3.1.2	Qo'shma vago	25
3.2	**Xitoy tilidan o'zlashtirilgan yapon tili leksikasi kango**	28
3.2.1	Sodda kango	28
3.2.2	Yasama kango	28
3.2.3	Ma'nosi jihatidan har xil so'zlardan yasalgan qo'shma kango	30
3.2.4	Ma'nosi jihatidan bir xil so'zlardan yasalgan qo'shma kango	32
3.2.5	Uch va undan ortiq qismdan iborat bo'lgan kango	33
3.2.6	Qisqartirilgan kango	33
3.2.7	Aralash qo'shma so'zlar	34
3.2.8	Asoslanmagan qo'shma va alohida o'qilishga ega bo'lgan so'zlar	34
3.3	*G'arbiy yevropa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar*	36
3.4	Yapon ismlari va geografik atamalarining o'qilishga doir qisqacha ma'lumot	37
4.	**Ot**	43
4.1	**Otlarning soni va rodi**	43
4.2	**Shaxsiy-xushmuomalalik munosabatlarni aks ettirilishi**	44
4.3	**Rasmiy otlar**	47
4.4	**Kelishiklar**	47
4.4.1	Bosh tematik kelishik	48
4.4.2	Bosh rematik kelishik	48
4.4.3	Qaratqich kelishik	51
4.4.4	Jo'nalish kelishik	52
4.4.5	Tushum kelishik	53
4.4.6	Yo'nalish kelishik	54
4.4.7	Birgalik kelishik	54
4.4.8	Qo'shma kelishik	55
4.4.9	Chiqish kelishik	57
4.4.10	Chiqish-solishtirma kelishik	57
4.4.11	Chekki kelishik	58
4.4.12	Ikkitalik kelishiklar	59
5.	***Son***	60
5.1	**Son turlari**	60
5.2	**Yapon tilida yaratilgan sanoq sonlar**	60
5.3	**Xitoy tilidan o'zlashtirilgan sanoq sonlar**	60
5.4	**Hisob so'zlar**	62
5.5	**Tartib sonlar**	65
5.6	**Kasr sonlar**	66
5.7	***Son-olmoshlar***	67
5.8	**Yoshni ko'rsatish uchun ishlatiladigan sonlar**	68
5.9	**Vaqtni ko'rsatish uchun ishlatiladigan sonlar**	68
5.10	**Sanalarni ko'rsatish uchun ishlatiladigan sonlar**	70
5.11	**Yillarni ko'rsatish uchun ishlatiladigan sonlar**	72
5.12	**Karrali sonlar**	73
5.13	**Taqribiy son**	73

6.	**Olmosh**	75
6.1	**Olmoshlar haqida umumiy ma'lumotlar**	75
6.2	**Kishilik olmoshlar**	75
6.3	**Ko'rsatish olmoshlar**	77
6.4	**So'roq olmoshlar**	78
6.5	**Noaniq olmoshlar**	80
6.6	**Umumlashtiruvchi olmoshlar**	80
7.	**Sifat**	82
7.1	**Sifat turlari**	82
7.1.1	Predikativ sifatlar	82
7.1.2	Predikativ sifatlarning besh negizi	82
7.1.3	Yarim predikativ sifatlar	84
7.1.4	Fe'ldan yasalgan predikativ sifatlar	85
7.1.5	Predikativ bo'lmagan yoki o'zgarmas sifatlar	85
7.2	**Sifat zamonlari**	85
7.2.1	Hozirgi zamon (inkor shakli)	85
7.2.2	O'tgan zamon (tasdiq shakli)	86
7.2.3	O'tgan zamon (inkor shakli)	87
7.2.4	Qiyosiy konstruktsiyalar	87
8.	**Fe'l**	89
8.1	**Fe'lning umumiy tasnifi**	89
8.2	**Fe'l tuslanishi**	89
8.2.1	Fe'lning birinchi turdagi tuslanishi	89
8.2.2	Fe'lning ikkinchi turdagi tuslanishining besh negizi	91
8.2.3	Fe'lning ikkinchi turdagi tuslanishining besh negizi	91
8.2.4	Fe'llar noto'g'ri tuslanishining besh negizi	92
8.2.5	Besh negiz funktsiyalari	92
8.3	**Yordamchi fe'llar**	94
8.3.1	だ（です）(*bo'lmoq*) bog'lamasi	94
8.3.2	ある、いる (*bor bo'lmoq*) fe'llari	95
8.4	**Ravishdosh va fe'l turi**	97
8.4.1	Oldin o'tgan zamon ravishdoshi て（で）shakli	97
8.4.2	Uzoq davom etadigan fe'l turi (ている shakli)	99
8.4.3	Uzoq davom etadigan fe'l turi (てある shakli)	100
8.4.4	Bir vaqtlikni bildiruvchi ravishdosh	101
8.4.5	Takroriy fe'l turi たり shakli	101
8.4.6	Fe'l turlari shakllari ていく、てくる、てしまう、ておく、てみる	102
8.5	**Mayl**	103
8.5.1	Istak mayli (たい, たがる shakllari)	103
8.5.2	Istak mayli (ほしい shakli)	105
8.5.3	Buyruq mayli	106
8.5.4	Shart mayli (ば shakli)	109
8.5.5	Shart mayli (たら（だら）shakli)	110
8.5.6	Shart mayli (と, なら, ならば shakli)	111
8.5.7	Shart mayli (to'siqsiz shakllar)	112
8.5.8	Zarurlik ifodasi (なければなりません shakllari)	113
8.5.9	zarurlik ifodasi (boshqa shakllar)	113
8.5.10	Ruxsat va ta'qiq ifodasi	115
8.5.11	Fikr. Maslahat	116

8.5.12	Taxmin mayli (でしょう (だろう) shakli)	117
8.5.13	Taxmin mayli (boshqa shakllar)	118
8.5.14	O'timli va o'timsiz fe'llar	120
8.6	**Nisbat**	122
8.6.1	Majhul nisbat	122
8.6.2	Undaydigan nisbat	124
8.6.3	Undash-majhul nisbat	126
8.6.4	Potentsial shakllar	127
8.6.5	Ish-harakatni amalga oshirish niyatiniifodalovchi fe'llar	129
8.6.6	Ish-harakatning yo'nalishi	131
8.6.7	Fe'llardan こと、もの、の (ん) so'zlar yordamida otlarni yaratish	133
8.6.8	Fe'llar suffikslarining jamlangan jadvali	135
8.6.9	Fe'lning xushmuomalalik shakllari 敬語	135
8.6.10	Turg'un grammatik konstruktsiyalar決まった言い方、文末の表現	139
9.	**Ravish**	141
9.1	**Umumiy ma'lumotlar**	141
9.2	**Tub va yasama ravishlar**	142
9.3	***Ravishlarning semantic tasnifi***	143
9.4	**Onomatopoetik ravishlar**	145
10.	**Yordamchi so'zlar**	146
10.1	**Bog'lovchilar**	146
10.1.1	Sodda gapdagi o'xshash bo'laklarni biriktiruvchi bog'lovchilar	146
10.1.2	Gaplarni biriktiruvchi bo'g'lovchilar	146
10.2	**Yuklama**	148
10.2.1	Yuklamalarning kelishik ko'rsatkichlari	148
10.2.2	Kuchaytiruvchi yoki ta'kidlovchi yuklamalar	148
10.2.3	Cheklovchi va aynituvchi yuklamalar	150
10.2.4	Chegaralovchi yuklamalar	151
10.2.5	Yakuniy va undov yuklamalar	152
10.2.6	Tasdiq va inkor yuklamalar	153
10.2.7	Otlardan yasalgan ko'makchilar	154
10.2.8	Fe'llardan yasalgan rasmiy ko'makchilar	156
11.	***Undov so'zlar***	158
12.	**Sintaksis**	160
12.1	**Gap bo'laklari**	160
12.1.1	Kesim	160
12.1.2	Ega	161
12.1.3	Aniqlovchi	163
12.1.4	To'ldiruvchi	165
12.1.5	Hol	166
12.1.6	Gapning boshqa bo'laklari	166
12.2	**Maqsad va his-hayajon (emotsiyali) gaplarning tasnifi**	167
12.2.1	Darak gap	167
12.2.2	So'roq gap	168
12.2.3	Buyruq gap	169
12.2.4	Undov gap	170
12.3	**Gaplarning tarkibiy tasnifi**	170
12.3.1	Sodda gap	170
12.3.2	Ikkita egalik gap	171
12.3.3	Bog'langan qo'shma gap	172

12.3.4 Aniqlovchi ergash gap
12.3.4.1 To'ldiruvchi ergash gap
12.3.4.2 Payt ergash gap
12.3.4.3 Sabab ergash gap
12.3.4.4 Maqsad ergash gap
12.3.4.5 Shart ergash gap
12.3.4.6 To'siqsiz ergash gap
12.3.4.7 まま so'zi yordamida yasalgan ish-harakatlining holatini bildiruvchi ergash gap
12.3.4.8 Miqdor, daraja, qiyosiy ergash gap
12.3.5 という va とおもう so'z birikmali konstruktsiyalar

13. Uslubiyat
13.1 Maktub uslubi
13.2 Og'zaki uslub

Tilshunoslik atamalarining o'zbekcha-yaponcha qisqa lug'at
Tilshunoslik atamalarining yaponcha-o'zbekcha qisqa lug'at
Foydalanilgan adabiyotlar